

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA-MAXSUS MA'LUMOTLI TEMIR YO'L HODIMLARINI TAYYORLASH TIZIMINING MIQDORIY-TARIXIY TAHLILI

Oybek Saydatov

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida o'rta-maxsus ma'lumotli temir yo'l hodimlarini tayyorlash tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning miqdoriy ko'rsatkichlari tarixiy tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqotda mustaqillikdan keyingi davrda temir yo'l transporti sohasida kadrlar siyosatining transformatsiyasi, ta'lim muassasalari tarmog'ining kengayishi va ularning hududiy joylashuvi, qabul kvotalari, bitiruvchilar soni hamda mutaxassisliklar tarkibidagi o'zgarishlar statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi, temir yo'l transporti, o'rta-maxsus ta'lim, kadrlar tayyorlash tizimi, miqdoriy tahlil, tarixiy tahlil, temir yo'l kollejlari, texnikumlar, kadrlar siyosati, transport infratuzilmasi, mehnat bozori, institutsional rivojlanish.

**Abstract:** This article examines the formation, stages of development, and quantitative indicators of the railway personnel training system with secondary specialized education in the Republic of Uzbekistan based on historical analysis. The study analyzes, based on statistical data, the transformation of personnel policy in the field of railway transport in the post-independence period, the expansion of the network of educational institutions and their territorial location, admission quotas, changes in the number of graduates and the structure of specialties.

**Keywords:** Republic of Uzbekistan, railway transport, secondary specialized education, personnel training system, quantitative analysis, historical analysis, railway colleges, technical schools, personnel policy, transport infrastructure, labor market, institutional development.

O'zbekiston Respublikasida temir yo'llar tarmog'ini sifatli, o'z sohasining bilimdoni bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash maqsadida muayyan ishlar amalga oshirilgan. O'zbekiston Temir yo'llari aksiyadorlik jamiyati tashkil etilgan 1994-yil noyabr holatiga ko'ra respublikada tarmoqni kadrlar bilan ta'minlash Toshkent temir yo'l muhandislari instituti, Toshkent va Samarqand shaharlaridagi temir yo'l transporti texnikumlari, Xovos shahridagi temir yo'l xo'jaligi maktabi, Toshkent temir yo'l transporti tibbiyot bilim yurti kabi o'quv muassasalari faoliyati orqali bajarilgan[1].

1998-yil yakunlariga ko'ra Toshkent temir yo'l texnikumida jami 1189 nafar o'quvchi ta'lim olib, ularning 618 nafari kunduzgi ta'lim shaklida, 571 nafari esa sirtqi ta'lim ko'rinishida tahsil olishgan. Bir yillik ta'lim xarajatlari miqdori ta'lim muassasasi bo'yicha jami 33 million 136 ming 120 so'mni tashkil qilib, kishi boshiga bir o'quvchiga yil davomida

27 ming 869 so'm pul sarflangan[2]. E'tiborli tomoni mazkur mablag'larning kata qismi O'zbekiston temir yo'llari aksiyadorlik jamiyati tomonidan qoplab berilgan.

Oliy ta'limgacha bo'lgan yoshlarni tanlab olish, ularning temir yo'l sohasidagi qiziqish va intilishlarini o'z vaqtida aniqlash, qo'llab-quvvatlash maqsadida 2020–2021-o'quv yilidan boshlab Qo'qon shahrida temir yo'l transporti kasb-hunar kolleji, Toshkent, Samarqand shaharlarida esa temir yo'l texnikumlari qaytadan tashkil qilindi[3]. "Qo'qon temir yo'l kasb-hunar kollejida temir yo'l stansiyalaridan foydalanish va xizmat ko'rsatish texnigi, temir yo'l transporti vositalaridan foydalanish va ta'mirlash bo'yicha mexanik, temir yo'l vagonlaridan foydalanish va ta'mirlash texnik-mexanigi, temir yo'llarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha mexanik, temir yo'l elektrotexnik tizimlaridan texnik foydalanish bo'yicha elektromexanik, temir yo'l kontakt tarmoqlari va tortish podstansiyalaridan texnik foydalanish va ta'mirlash bo'yicha elektrigi, metallarga ishlov berish mexanigi kabi tor sohadagi o'rta ma'lumotli mutaxassislar tayyorlansa"[4], Toshkent temir yo'l texnikumida temir yo'l stansiyalari navbatchisi (turlari bo'yicha), lokomotiv mashinisti yordamchisi, nazorat vositalari texnik operatori, temir yo'llar va sun'iy inshootlar bo'yicha texnik kuzatuvchi, harakatdagi tarkib va konteynerlarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangari (turlari bo'yicha), temir yo'l vagonlarini ta'mirlovchi elektromexanik, poyezd va stansiya jihozlari radioaloqa qurilmalarini ishlatish va ta'mirlash bo'yicha elektromontyor, elektromexanik, yo'l hujjatlarini realizatsiya qilish bo'yicha agent, tovar (yuk) kassiri, metropoliten bekati navbatchisi kabi o'rta-maxsus malaka toifasidagi kadrlar yetishtirilgan.

2021–2022-o'quv yilida Toshkent temir yo'l texnikumini 233 nafar, Qo'qon temir yo'l texnikumini 349 nafar hamda Samarqand temir yo'l texnikumini 364 nafar o'quvchi bitirib, ular to'liq ish bilan ta'minlangan. Bu borada "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi v.b. X. Xasilovning 2022-yil 4-martdagi 204-N-sonli "Tasarrufdagi texnikumlar bitiruvchilarini ishga qabul qilish to'g'risida"gi buyrug'i ham chiqarilgan[5].

Temir yo'llar tarmog'ida kadrlar tayyorlash tizimining o'ziga xos bog'ini ishchi-xodimlarning malakasini oshirish hisoblanadi. "Toshkent temir yo'l transporti muhandislari instituti qoshidagi temir yo'l mutaxassislari malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi sohadagi eng tajribali markaz bo'lib, ushbu markaz 1931-yilda O'rta Osiyo temir yo'l transporti muhandislari instituti nomi bilan tashkil etilgan edi"[6]. "1969-yildan boshlab institutda malaka oshirish fakulteti (MOF) o'z faoliyatini boshlagan. "O'zbekiston temir yo'llari" DATK boshqaruvi raisi A.J.Ramatovning 2004-yil 1-noyabrdagi № 349-N son buyrug'i asosida Toshkent temir yo'l transporti muhandislari instituti qoshida Kadrlar malakasini oshirish, tayyorlash va qayta tayyorlash yo'l markazi (KMOT va QTYM) tashkil etildi"[7]. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ rahbariyatining №311-N-son buyrug'iga binoan malaka oshirish markazi 2020- yil may oyida Toshkent temir yo'l muhandislari instituti tasarrufidan Toshkent temir yo'l transporti kasb-hunar kolleji tasarrufiga o'tkazilgan". "2021-yil 19-aprelda esa "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruvi raisi v.b. X.N. Xasilovning №413-N-son buyrug'i asosida Kadrlar malakasini oshirish, tayyorlash va qayta



tayyorlash markazi negizida Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti tashkil etildi”.

“2022-yil 31-avgustda “O‘TY” AJ boshqaruvi raisi v.b. X.N. Xasilov tomonidan imzolangan 820-N -son buyruqqa ko‘ra, Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi Toshkent temir yo‘l texnikumi tarkibiga o‘tkazilgan”[8]. Qayd etish lozimki, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi faoliyati temir yo‘l transporti hamda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining temir yo‘l transporti sohasida faoliyat yuritayotgan boshqa korxona va tashkilotlarning ommaviy ishchi kadrlari, muhandis-texnik xodimlari va xizmatchilari, yuqori va o‘rta bo‘g‘in rahbarlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash sohasidagi ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan.

“Markazda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ rahbaryati tomonidan tasdiqlangan yillik ro‘yxatga asosan tashkil etiladigan o‘quv kurslarida 15 boshqarma, 88 yo‘nalish va 125 lavozim darajalari bo‘yicha tashkil etiladigan kurslarda temir yo‘l xodimlari tahsil oladilar. Malaka oshirish kurslarida o‘quv muddati 6 kundan 24 kungacha va qayta tayyorlash kurslarida esa 24 kundan 96 kungacha davom etadi”[9].

Shu bilan birgalikda temir yo‘llar tizimining rahbar xodimlarini menejment, marketing, ma‘muriy boshqaruvning zamonaviy usullari bilan tanishtirish, ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi Biznes va tadbirkorlik oliy maktablarida tashkil qilinadigan kurslarga jalb qilish amaliyoti ham mavjud. Shunday bo‘lsa-da O‘zbekiston temir yo‘l sektorida kadrlar tayyorlashda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjud. Bu muammolar kadrlar malakasining xalqaro darajaga mos kelmasligi, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda sektorning jadal rivojlanish sur‘ati bilan hamohang kadrlar tayyorlash tizimining kechikayotganligi kabi omillar bilan bog‘liq.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘z MA, M-92-fond, 1-ro‘yxat, 20-ish, 43-varaq.
2. O‘z MA, M-92-fond, 1-ro‘yxat, 20-ish, 40–41-varaqlar
3. O‘zbekiston temir yo‘llarining 30 yillik tarixiy yo‘li. Kitob-albom. Muallif va tuzuvchi: Hotamboyeva H. –Toshkent, 2021. – B. 292.
4. Elektron resurs: <http://kasbtanla.uz/viloyat/vcomplete?id=253>. Murojaat qilingan sana: 01.02.2021.
5. Elektron resurs: [https://railway.uz/uz/informatsionnaya\\_sluzhba/novosti/33465/](https://railway.uz/uz/informatsionnaya_sluzhba/novosti/33465/). Murojaat qilingan sana: 10.03.2022.
6. O‘zMA, R.95-fond, 1-ro‘yxat, 3123-yig‘ma jild, 12-varaq.
7. O‘zMA, M.92-fond, 1-ro‘yxat, 345-yig‘ma jild, 294-varaq.
8. Elektron resurs:





[https://railway.uz/uz/kadrovaya\\_politika/povyshenie\\_kvalifikatsii/](https://railway.uz/uz/kadrovaya_politika/povyshenie_kvalifikatsii/). Murojaat qilingan sana: 01.09.2022.

9. Elektron resurs:

[https://railway.uz/uz/kadrovaya\\_politika/povyshenie\\_kvalifikatsii/](https://railway.uz/uz/kadrovaya_politika/povyshenie_kvalifikatsii/). Murojaat qilingan sana: 01.09.2022.